



UDK:371.03.1

To'liqinjon ESHQUVVATOV,

KDPIning Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasini mudiri, PhD, dotsent

E-mail: t.eshquvvatov@mail.ru

JTSBMQTMOI dotsenti Z.Begimqulov taqrizi asosida

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIGA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHDA PROFESSOR-O'QITUVCHILARDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalarni joriy etish jarayonida professor-o'qituvchilarning konfliktologik kompetensiyalarini takomillashtirish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion jarayonlar ta'lim muhitiga ko'rsatadigan ta'siri, raqamlashtirish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish davrida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning kelib chiqish omillari aniqlangan.

Kalit so'zlar: konfliktologik kompetensiya, pedagogik nizo, nizo profilaktikasi, konstruktiv konflikt, pedagogik jarayon, tashkiliy-pedagogik shart-sharoit.

ПОВЫШЕНИЕ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРОФЕССОРСКО- ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА ПРИ ВНЕДРЕНИИ ИННОВАЦИЙ В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ

Аннотация

В статье научно-практически анализируется проблема совершенствования конфликтологической компетентности профессорско-преподавательского состава в условиях внедрения инноваций в высших учебных заведениях. В исследовании раскрыто влияние инновационных процессов на образовательную среду, выявлены причины возникновения конфликтных ситуаций в период цифровизации и внедрения новых педагогических технологий.

Ключевые слова: конфликтологическая компетентность, педагогический конфликт, профилактика конфликтов, конструктивное разрешение, педагогический процесс, образовательная среда.

IMPROVING CONFLICTOLOGICAL COMPETENCIES OF PROFESSORS AND TEACHERS IN INTRODUCING INNOVATIONS INTO HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

This article provides a scientific and practical analysis of the problem of developing conflictological competences among university professors in the context of implementing innovations in higher education institutions. The study examines the impact of innovation processes on the educational environment and identifies the causes of conflict situations that arise during digitalization and the introduction of new pedagogical technologies. Contradictions in the relationships between higher education stakeholders, difficulties in psychological adaptation, and varying levels of communicative culture are considered as key factors influencing the effectiveness of innovative development.

Keywords: conflictological competence, pedagogical conflict, conflict prevention, constructive resolution, higher education, professional development.

Kirish. Jahon miqyosida ta'lim tizimi nafaqat inson intellektual salohiyatining ko'rsatkichi, balki shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ta'lim jarayonlarini nizolardan xoli tarzda tashkil etish, o'quvchi va talabalarning mutaxassislik bo'yicha tegishli kompetensiyalarini shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan oliy ta'lim muassasalaridagi ichki psixologik muhit va jamoaviy hamkorlikka bog'liq. Innovatsion rivojlanish jarayonida shaxslararo nizolar, qarama-qarshi pozitsiyalar va psixologik qarshiliklar muqarrar ravishda yuzaga keladi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida nizolarni profilaktika qilishni tashkil etish-innovatsion o'zgarishlarni barqaror qo'llab-quvvatlashning muhim omili hisoblanadi. Ushbu maqolada nizolar profilaktikasiga asoslangan tashkiliy modelni ishlab chiqish orqali oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanish jarayonini takomillashtirish tahlil qilinadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Ta'lim jarayonlarining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi, innovatsion boshqaruv, raqamlashtirish hamda pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni shakllantirish yo'nalishida ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xususan, O.A. Danilevich, O.Yu. Gordashnikova, T.P. Gorelova, A.A. Engovatova va boshqa rus olimlari o'z tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimining innovatsion infratuzilmasini tashkil etish, boshqaruv samaradorligini oshirish, ilmiy-pedagogik salohiyatni kuchaytirish hamda universitet muhitida innovatsion madaniyatni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratganlar.

Mahalliy olimlardan A. Abduqodirov, B. Ziyomuhamedov, N. Sayidahmedov, O. Hasanboeva, U. Nishonov, M. Ochilov, A. To'raqulovlarning ishlarida ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, pedagogik jarayonni modernizatsiyalash, o'qituvchilarning kasbiy

kompetensiyalarini rivojlantirish hamda konfliktologik madaniyatni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion rivojlanish – bu ta'lim tizimida yangicha boshqaruv madaniyatini shakllantirish, o'qituvchi va rahbarlar faoliyatida ijodiy yondashuvni kuchaytirish jarayonidir. Innovatsiyalarni joriy etish, bir tomondan, yangilanishni, ikkinchi tomondan, jamoa a'zolari o'rtasida ma'lum darajadagi qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, innovatsion rivojlanish bilan

birga konfliktlarni boshqarish madaniyati ham rivojlanishi zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida nizolarni profilaktika qilish jarayoni quyidagi komponentlardan iborat:

- Tashkiliy omillar: boshqaruv tizimidagi ochiqlik va adolat;
- Psixologik omillar: empatiya, tolerantlik, stressga bardoshlilik;
- Pedagogik omillar: kommunikativ madaniyat, mediatsion yondashuvlar, o'zaro tahlil.

Tashkiliy modelning tuzilmasi

Daraja	Mazmuni	Amalga oshirish shakli
Strategik	Institut rahbariyati darajasida nizolarni oldini olish strategiyasi	Monitoring tizimi, mediatorlar tayyorlash, ichki audit
Tashkiliy	Fakultet va kafedralarda profilaktika mexanizmlari	Treninglar, seminarlar, psixologik diagnostika
Shaxsiy	O'qituvchi va talabalar darajasida madaniyatni rivojlantirish	Konfliktologik treninglar, refleksiya, stress menejment

Modelni samarali qo'llash uchun quyidagi sharoitlar zarur

- Rahbariyat tomonidan psixologik xizmatlarni qo'llab-quvvatlash;
- Mediatsion platformalar tashkil etish;
- Konfliktologik treninglarni malaka oshirish kurslariga kiritish;
- Nizolarni tahlil qiluvchi "feedback" tizimini yo'lga qo'yish.

Innovatsion rivojlanishning barqarorligini ta'minlashda nizolarni profilaktika qilish tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oliy ta'lim muassasalarida konfliktologik madaniyatni shakllantirish nafaqat jamoa muhitini yaxshilaydi, balki innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli, har bir OTMda konfliktologik markazlar tashkil etish, psixologik diagnostika tizimini yo'lga qo'yish va treninglar orqali o'qituvchilar kompetensiyasini oshirish tavsiya etiladi.

Tajriba-sinov jarayonida oliy ta'lim muassasasida nizoli vaziyatlar profilaktikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va baholashga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi-o'quv jarayoni sub'ektlari o'rtasida nizolar vujudga kelishining real omillarini aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish hamda bu omillarning innovatsion ta'lim muhitiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Shu maqsadda talabalar, professor-o'qituvchilar va universitet boshqaruv apparati (rektorat) vakillari o'rtasida

1-jadval. OTMda innovatsiyalarni qo'llash jarayonida nizolar kelib chiqishining asosiy omillari (130 nafar respondent asosida)

Indikatorlar	Ijoiy javoblar soni	Foiz (%)
Innovatsiyalar mazmunining to'liq tushuntirilmasligi (instruksiya yetishmovchiligi)	70	53,6%
Innovatsiya mazmunining ta'lim jarayoniga mos kelmasligi	43	33,0%
Innovatsiyalarni qo'llashda tashkiliy jarayonlarning yetarli yo'lga qo'yilmaganligi	73	55,8%
Talabalarning innovatsiyalarni qabul qilishga tayyor emasligi	31	23,5%
Moddiy-texnik baza yetishmovchiligi	77	59,4%
Innovatsiyalarni qabul qilishda psixologik tayyorgarlikning pastligi	39	30,1%
Innovatsiyalarning "yuqoridan" rasmiy tarzda joriy etilishi, mazmunining yetarli ishlab chiqilmaganligi	33	25,0%
OTMda joriy etilgan innovatsiyalarning umumiy samaradorligidan qoniqish darajasi	61	47,0%
O'qituvchilarning konservativ ("dogmatik") yondashuvi	45	34,5%
Rahbariyat va xodimlar o'rtasida kommunikativ tushunishning pastligi	23	17,6%

Ushbu tahlil natijalari OTMda innovatsion jarayonlarning joriy etilishi jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning ko'p qirrali va murakkab xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Eng yuqori ko'rsatkich – 59,4% moddiy-texnik baza bilan bog'liq muammolar bo'lib, bu innovatsiyalarni samarali amalga oshirishda texnik va infratuzilma resurslarining yetarli emasligini anglatadi. Bu holat innovatsion jarayonlarning barqarorligini ta'minlashda infratuzilmaning hal qiluvchi rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Shuningdek, 55,8% respondentlar innovatsiyalarni qo'llash jarayonining tashkiliy jihatdan yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganini ta'kidlagan. Bu esa innovatsion faoliyatning metodik, tashkiliy hamda boshqaruv mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

maxsus ishlab chiqilgan anketa-so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma strukturasida muayyan savollar uchun standart javob variantlarini cheklovlarisiz tanlash imkoniyati yaratilgan bo'lib, bunda fikrlar xilma-xilligini ta'minlash, javoblarning sub'ektiv cheklanishini kamaytirish uchun qo'shimcha ravishda "izoh berish" bloklari qo'shildi. Bu esa respondentlarga o'z pozitsiyasini kengroq bayon qilish, nizoli vaziyatlar sabablari haqida chuqurroq ma'lumot taqdim etish imkonini berdi.

Oliy ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarning joriy etilishi ko'pincha pedagogik muhitda turli qarama-qarshiliklar va nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu holatning sabablarini aniqlash maqsadida 130 nafar respondent (talabalar, professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlari) o'rtasida maxsus anketa-so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma indikatorlari innovatsion jarayonlarda uchraydigan tipik tashkiliy, psixologik va metodik muammolarni qamrab oldi.

Respondentlarga bir nechta javob variantlarini tanlash imkoniyati berilganligi ularning fikrini kengroq bayon qilish, mavjud muammolarni yanada aniqroq aniqlashga yordam berdi. Olingan natijalar innovatsion jarayonlarda uchraydigan nizolar ko'proq "tashkiliy-texnik yetishmovchiliklar", "psixologik tayyorgarlikning pastligi", "mazmuniy nomuvofiqliklar", "kommunikatsiya yetarli emasligi" bilan bog'liq ekanini ko'rsatdi. Quyida mazkur natijalar tizimli jadval ko'rinishida keltirilgan.

53,6% ishtirokchi innovatsiyalar mazmunining yetarli darajada tushuntirilmasligini nizoli vaziyatlarning sabablaridan biri sifatida ko'rsatgan. Bu natija OTMda axborot-kommunikatsiya kanallarini takomillashtirish, pedagoglar uchun yo'riqnoma va metodik tavsiyalarni boyitish lozimligini anglatadi.

Psixologik tayyorgarlikning pastligi (30,1%), o'qituvchilar konservatizmi (34,5%) hamda talabalar tomonidan yangi jarayonlarni qabul qilmaslik (23,5%) ko'rsatkichlari esa innovatsion jarayonlarda psixologik moslashuv, motivatsiya va kommunikativ madaniyatning muhimligini asoslaydi. Bu omillar pedagogik jamoalarda konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini namoyish etadi. Umuman olganda, natijalar innovatsion

jarayonlarning samaradorligi bir vaqtning o'zida tashkiliy, psixologik, texnik va kommunikativ omillar uyg'unligiga bog'liqligini ko'rsatmoqda.

Bizning nazarimizda, innovatsion rivojlanish sharoitida yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish va boshqarish jihatdan o'ta murakkab bo'lib, nizo yuzaga kelgach innovator va ishtirokchi sub'ektlarning o'z pozitsiyalarini yoki shart-sharoitlarini o'zgartirish qiyin kechadi. Garchi ayrim vaziyatlarda nizoning susayishi kuzatilsada, bu holat doimiy ekanligi, asosiy ziddiyat yashirin shaklga o'tmaganligi kafolatlanmaydi, ya'ni har safar ikki tomonning birida ma'lum resurslarning kamayishi yoki nizoni hal etishga bo'lgan motivatsiyaning yo'qolishi yoki innovatsion yondashuv ortidan yuzaga keladigan navbatdagi qiyinchilik yoxud nizo ob'ektiga bo'lgan e'tiborning pasayishi kabi omillar nizoning qayta tiklanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, innovatsion rivojlanish sharoitida nizo omillarining noaniqligi uni hal qilish jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Bunda nizo ob'ekti yagona, ya'ni amalga oshirilayotgan yangilik bo'lsada, yuqorida sanab o'tilgan muhitning xilma-xilligi asosiy rol o'ynaydi. Mazkur muhitning salbiy ta'siri natijasida sub'ektlar tomonidan innovatsiyalar to'liq rad etilib, jarayon izdan chiqishi va kutilgan samaraga erishilmasligi, sarflangan moddiy va ma'naviy xarajatlar o'zini oqlamasligi, turli yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sub'ektlar nazarida innovatsiya va uning natijasiga bo'lgan ishonchning kamayishi o'ta puxta o'ylangan va muhim hisoblangan kelgusi innovatsion harakatlarni muassasada amalga oshirishni qiyin kechishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Innovatsion rivojlantirish natijalari, bir tomondan, amalga oshirilgan ishlarning yakuniy majmui sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, jarayon ishtirokchilarining faoliyatiga nisbatan konstruktiv munosabat bildirish imkonini beruvchi muhim bosqich hisoblanadi. Natijalarni taqdim etish jarayonida ortiqcha bosim o'tkazmaslik, vaziyatni real baholash va ehtiyotkorlik bilan yakuniy xulosalar chiqarish o'ta muhimdir. Bunda yopiq, ogohlantiruvchi va istiqbolli tavsiya ruhida yondashuvlar nizolarni oldini olishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishda muhim o'rinni tutadi. Innovatsion rivojlanish jarayonida kiritilgan yangiliklar turli guruhlar tomonidan har doim ham bir xil baholanmaydi. Tayyorlangan xulosa va tavsiyalar ba'zan rad etilishi, qiyinchilik bilan qabul qilinishi yoki ishtirokchilar tomonidan qisman qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Shu sababli OTM rahbariyati va innovatsion jarayon tashabbuskorlari natijalarga bildiriladigan turli munosabatlar, ehtimoliy qarshiliklar va nizoli vaziyatlarga oldindan tayyor bo'lishlari zarur.

Bizningcha, oliy ta'limda innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati avvalo pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligiga, yangiliklarni qabul qila olishiga, tahlil qila olishi va ijodkorlik salohiyatiga bog'liq. Innovatsion rivojlanish jarayonida vujudga keladigan ziddiyatlar

innovatsion xulq-atvorning turli modellardan, ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasidan hamda jarayon mobaynida yuzaga keladigan turli to'qnashuvlardan kelib chiqadi.

Oliy ta'lim tizimidagi innovatsiya jarayonining holati va istiqbollari quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi:

1. OTM sub'ektlarining innovatsiyalar va innovatsion qadriyatlarga nisbatan munosabati; 2. innovatsiyalarni rejalashtirish, tahlil qilish va nazorat qilish amaliyoti;

3. sub'ektlarning innovatsion faoliyatda ishtirok etish darajasi; 4. yangiliklarni ishlab chiqish va qabul qilishga tayyorgarlik darajasi; 5. rahbariyat, innovatorlar va ijrochilar o'rtasidagi hamkorlik va samarali o'zaro ta'sir mexanizmlarining mavjudligi.

Bizning fikrimizcha, professor-o'qituvchilar va mutaxassislarning o'z kasbiy mahoratini oshirib borishi bilan bir qatorda nizolarni oldini olishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik treninglar, muloqot va muzokara ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, psixologlar va konfliktologlar ishtirokidagi davra suhbatlari tashkil etilishi yuqori samara beradi. Talabalarni innovatsiyalar yaratish va innovatsion rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan to'qnashuvlarning oldini olishga tayyorlash ham jarayonning muhim bo'g'inlaridan biridir.

Innovatsiyalarni jamoaviy qo'llab-quvvatlashga erishish uchun pedagoglar va talabalar ongida yangilikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularda motivatsiya, ma'uliyat va ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarur. Bu jihat birinchi navbatda OTMning umumiy rivojlanish strategiyasi doirasida sub'ektlarning birlashuviga, rahbariyatning nizolarni boshqarish madaniyatining rivojlanishiga, muzokara olib borish ko'nikmalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, yangiliklarni joriy etishda professor-o'qituvchilar va talabalar manfaatlarini hisobga olish, boshqaruv guruhlariga metodik ko'mak ko'rsatish ham muhim vazifalardandir [6].

Shunday qilib, innovatsion jarayonlarni boshqarishning boshlang'ich bosqichlarida kichik pedagogik, ijtimoiy va psixologik nizolarning oldini olish bo'yicha kompleks choralarni ko'rish orqali katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Innovatsion rivojlanish muammolarining manbalari ko'p qirrali bo'lib, ular tashkilotning madaniyati, ichki iqlimi va boshqaruv uslubiga bog'liq. Shu ma'noda rahbarning innovatsion jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni oldindan ko'ra olishi, ular bilan samarali ishlay olishi va nizo profilaktikasi bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishi jarayon muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Natijada, talabalarni nizo profilaktikasi bo'yicha tayyorlash, professor-o'qituvchilar uchun treninglar va qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish, innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishga xizmat qiluvchi zarur shart-sharoitlarni yaratish OTMlarning innovatsion salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Белокрылова О. С., Погосян Н. М. Инновационное развитие вузов: организационно-экономический подход // JOURNAL OF ECONOMIC REGULATION. -Ростов-на-Дону. 2015. Том 6, №2. С.6-17.
2. Гордашников О.Ю. Инновационное развитие вуза как эффективная форма повышения качества образования //Журнал. Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. – С, 2017. –с.60-64.
3. Данилевич О. А. Стратегия инновационного развития вуза // Наукові записки. Серія "Економіка". Київ.:2010. Випуск 14. – с.134-140.
4. Зеленков, М. Ю. Социальная конфликтология (базовый курс) – М.: Юридический институт МИИТа, 2011 – 272 с.
5. Сюй Цзин-Ли Управление инновационными конфликтами в Российский организациях., Автореф. дис. канд. соц. наук. – М.: 2010. стр.19
6. Тарабасва В.Б. Организационные механизмы управления конфликтами инновационного развития в вузах: учебное пособие. – Б: БелГУ, 2010. – 249 с.
7. Энгватова А. А. Модели организации инновационной инфраструктуры российских вузов. Автореф. дис. ... кан. наук. – М., 2013. –26с.